

O‘zbek xalq ertaklarini konseptual tahlil qilish

Kuranbayeva Feruza Sultanazarovna

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Ma’naviyat
bo‘limi xodimi**

kuranbaevaferuza1975@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek xalq ertaklarini konseptual tahlil qilish masalalari kognitiv va lingvomadaniy yondashuv asosida tadqiq etilgan. Unda xalq ertaklarida aks etgan yaxshilik va yomonlik, adolat, oila kabi asosiy konseptlarning mazmun-mohiyati tahlil qilingan. “Zumrad va Qimmat”, “Uch og‘a-ini botirlar” kabi xalq ertaklari misolida milliy tafakkur, axloqiy qadriyatlar hamda xalq mentalitetining badiiy ifodasi yoritilgan. Shuningdek, ertaklardagi ramziy obrazlar va madaniy kodlarning xalqning konseptual dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni ochib berilgan. Tadqiqot natijasida o‘zbek xalq ertaklari milliy-madaniy konseptlarni aks ettiruvchi muhim lingvistik va ma’naviy manba ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: folklor, xalq ertaklari, konsept, konseptual tahlil, lingvomadaniyat, antropotsentrizm, milliy mentalitet, madaniy kod, kognitiv tilshunoslik, xalq og‘zaki ijodi

Аннотация. В данной статье вопросы концептуального анализа узбекских народных сказок исследуются на основе когнитивного и лингвокультурологического подходов. Анализируются содержание и сущность таких ключевых концептов, как добро и зло, справедливость, семья и мужество, отражённых в народных сказках. На примере сказок «Зумрад и Киммат», «Три брата-батыра» раскрывается художественное выражение национального мышления, нравственных ценностей и народного менталитета. Также освещается роль символических образов и культурных кодов в формировании концептуальной картины мира народа. В результате исследования обосновывается, что узбекские народные сказки являются важным лингвистическим и духовным источником, отражающим национально-культурные концепты.

Ключевые слова: фольклор, народные сказки, концепт, концептуальный анализ, лингвокультурология, антропоцентризм, национальный менталитет, культурный код, когнитивная лингвистика, устное народное творчество

Abstract. This article examines the conceptual analysis of Uzbek folk tales based on cognitive and linguocultural approaches. It analyzes the essence and content of key concepts such as good and evil, labor, justice, family, and bravery reflected in folk tales. Using the examples of the folk tales “Zumrad and Qimmat,” “Three Heroic Brothers” the study highlights the artistic representation of national thinking, moral values, and folk mentality. The article also reveals the role of symbolic images and cultural codes in shaping the conceptual worldview of the people. The research substantiates that Uzbek folk tales serve as an important linguistic and spiritual source reflecting national and cultural concepts.

Keywords: folklore, folk tales, concept, conceptual analysis, linguoculturology, anthropocentrism, national mentality, cultural code, cognitive linguistics, oral folk art.

O‘zbek xalq ertaklari xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va sarmazmun janrlaridan biri hisoblanadi. Ularda xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, ma‘naviy qadriyatlari, axloqiy me‘yorlari hamda milliy tafakkuri mujassamlashgan. Ertaklar nafaqat badiiy-estetik hodisa, balki xalq ongining, milliy mentalitetning va madaniy xotiraning muhim lingvistik manbasi sifatida ham katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy tilshunoslikda folklor matnlarini konseptual tahlil qilish masalasi alohida dolzarflik kasb etmoqda. Chunki konsept til, tafakkur va madaniyatning kesishgan nuqtasida yuzaga keladigan murakkab kognitiv birlik sifatida xalqning dunyoni idrok etish usulini ochib beradi. O‘zbek xalq ertaklarini konseptual jihatdan tahlil qilish orqali xalqning yaxshilik va yomonlik, adolat, mehnat, oila, vatan, mardlik, sadoqat kabi tushunchalarni qanday anglagani aniqlanadi.

Ertaklarda obrazlar, ramzlar, timsollar, voqealar tizimi va til birliklari orqali milliy konseptlar shakllanadi. Shu sababli ertaklar xalqning konseptual olamini o‘rganishda noyob manba vazifasini bajaradi.

Kognitiv tilshunoslikda konsept inson ongida shakllangan madaniy, ruhiy va ma‘naviy tushunchalar yig‘indisi sifatida talqin qilinadi. Konsept oddiy lug‘aviy ma‘nodan kengroq bo‘lib, unda xalqning tarixiy tajribasi, mentaliteti va madaniy qarashlari mujassam bo‘ladi. Masalan: “Vatan”, “Ona”, “Non”, “Baxt”, “Adolat”, “Mehnat” kabi tushunchalar xalq tafakkurida keng assotsiativ maydonga ega konseptlar hisoblanadi.

Konseptual tahlil esa matndagi ana shu tushunchalarning mazmunini, madaniy va kognitiv qatlamlarini aniqlashga xizmat qiladi.

O‘zbek xalq ertaklari milliy konseptlarning badiiy ifodasidir. Ertaklarda xalqning axloqiy ideallari, estetik qarashlari, milliy qadriyatlari, orzu-intilishlari, ijtimoiy munosabatlari badiiy obrazlar orqali ifodalanadi. Ayniqsa, sehrli ertaklar, maishiy ertaklar va hayvonlar haqidagi ertaklarda xalqning konseptual dunyoqarashi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Masalan, “Yaxshilik” va “Yomonlik” konseptini “Zumrad va Qimmat” ertagi misolida tahlil qilsak. Ma’lumki, o‘zbek xalqining mashhur ertaklaridan biri bo‘lgan “Zumrad va Qimmat” ertagi konseptual jihatdan yaxshilik va yomonlik oppozitsiyasiga qurilgan.

Zumrad obrazi orqali ifodalangan konseptlar mehnatsevarlik, kamtarlik, sabr, halollik va mehribonlikdir.

Qimmat obrazi orqali ifodalangan konseptlar esa dangasalik, manmanlik, ochko‘zlik, hurmatsizlik, hasad kabilar hisoblanadi.

Ertak syujetida yaxshilik mukofotlanadi, yomonlik esa jazolanadi. Bu orqali xalqning axloqiy konsepsiyasi ifodalanadi. Xalq ongida ezgulik har doim g‘alaba qiladi degan qarash mustahkamlangan.

Zumradning tabiat bilan uyg‘unligi ham xalq tafakkuridagi “poklik” konseptini ifodalaydi. U mehnati va samimiyligi orqali baxtga erishadi.

O‘zbek ertaklarida yaxshilik konsepti ko‘pincha quyidagi belgilar bilan ifodalanadi: ota-onaga hurmat, halol mehnat, sabr, kattalarga izzat, odoblilik, mehribonlik.

Bu xalqning axloqiy dunyoqarashini aks ettiradi.

“Adolat” konseptini “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi misolida tahlil qilamiz.

Mazkur ertakda adolat va insoflilik asosiy g‘oyaviy markaz hisoblanadi. Akakalarning sinovlardan o‘tishi orqali insonning haqiqiy qadri uning boyligi bilan emas, balki adolati va vijdoni bilan o‘lchanishi ko‘rsatiladi.

Adolat konsepti quyidagi birliklar orqali ifodalanadi: 1) haqiqat; 2) insoflilik; 3) vijdon; 4) halollik; 5) mardlik.

Ertak yakunida adolatning tantana qilishi xalqning ijtimoiy idealini aks ettiradi.

O‘zbek folklorida adolat podshoh obrazi, dono qariya, xalqparvar qahramon, oqilona hukm orqali ifodalanadi.

Bu esa xalqning jamiyat haqidagi ideal tasavvurini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalq ertaklarida oila muqaddas tushuncha sifatida talqin qilinadi. Farzandning ota-onaga hurmati eng muhim axloqiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Masalan, ko‘plab ertaklarda ota duosi, ona mehri, oilaviy birlik, aka-uka ahilligi asosiy motiv sifatida uchraydi.

Ona obrazi o‘zbek folklorida mehr, fidoyilik, sabr, himoya hamda muqaddaslik ramzi sifatida talqin qilinadi. Ko‘plab ertaklarda qahramonning muvaffaqiyatga erishishida ona duosi muhim rol o‘ynaydi. Bu esa xalq tafakkurida “ona roziligi” konseptining alohida o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalq ertaklarini konseptual tahlil qilish:

- 1) xalq mentalitetini o‘rganishga;
- 2) milliy qadriyatlarni aniqlashga;
- 3) til va tafakkur munosabatini ochishga;
- 4) madaniy kodlarni aniqlashga;
- 5) folklor matnlarining yashirin semantik qatlamlarini o‘rganishga xizmat qiladi.

Shuningdek, konseptual tahlil folklor matnlarini lingvomadaniy va antropotsentrik jihatdan chuqurroq tadqiq etish imkonini beradi.

O‘zbek xalq ertaklari xalqning konseptual dunyoqarashini aks ettiruvchi noyob ma’naviy merosdir. Ularda xalqning yaxshilik, adolat, mehnat, oila, mardlik, sadoqat kabi tushunchalar haqidagi qarashlari badiiy obrazlar orqali ifodalanadi.

Konseptual tahlil ertaklarning nafaqat syujet va obraz tizimini, balki ularning ichki semantik hamda madaniy mohiyatini ham ochib beradi. Ayniqsa, “Zumrad va Qimmat”, “Uch og‘a-ini botirlar” va boshqa ertaklarda xalqning axloqiy va ma’naviy qadriyatlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shu bois o‘zbek xalq ertaklarini konseptual jihatdan o‘rganish milliy tafakkur, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010. – 290 b.
2. Мадаев О. Халқ оғзаки ижоди. – Тошкент: Шарк, 2001. – 181 b.
3. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: “Turon zamin ziyo”, 2015. – 44 б.
4. Черноусова И.П. Язык фольклора как отражение этнической ментальности: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Москва, 2015. – 22 с.
5. Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы). – М.: РУДН, 1997. – 331 с.
6. Шмелев А.Д. Русская языковая модель мира: Материалы к словарю. – Москва: Языки славянской культуры, 2002. – 225 с.
7. O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 153 b.